



Qurilish ishlari

RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi – 1106,7 mlrd. so‘m
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – 15,9 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 55,8 foiz
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 28,3 foiz

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 1106,7 mlrd. so‘mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o‘shish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil etdi va 2,3 foiz punktga ko'paydi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 175,5 mlrd. so‘mni yoki 101,6 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 foiz punktga ko'paydi.




Qurilish ishlari, mlrd. so‘m




Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1055,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 95,4 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 foiz punktga oshdi.

2018 yil yanvar-avgust oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Jami qurilish pudrat ishlari tarkibidagi "Bino va inshootlar qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 733,6 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi, va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 8,9 foiz punktga koʻpaydi. Shuningdek, "Fuqarolik ob'ektlari qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 131,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 11,3 foizga punktiga kamaydi, "Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari" faoliyat turi bo'yicha 241,5 mlrd. soʻmga bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 4,2 foiz punktga kamaydi.

Qurilish ishlari tarkibi

Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish texnik qayta qurollantirish 807,3 mlrd. so‘m


Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari 299,4 mlrd. so‘m



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jixotdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 807,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 299,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

O‘tgan yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish ishlari 11,1 foiz punktga ko‘paydi. Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 13,9 foiz punktga kamaydi.

2018 yil yanvar-avgust oylari uchun qurilish ishlari



Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi

Nashr uchun mas‘ul: Z.Seytimbetova

(0361) 222-75-91